

DISM - 01

«Sifat, inson va energiya zahiralari boshqarish, ijtimoiy barqarorlik, atrof-muhitni muhofaza qilish, sog'liq va mehnat havfsizligini ta'minlash sohasidagi siyosati»

MChJ shaklidagi «KNAUF GIPS BUXARA» Xorijiy korxonasi (keyinchalik matnda – Korxon) sifat, inson va energiya zahiralari boshqarish, ijtimoiy barqarorlik, atrof-muhitni muhofaza qilish, kasbiy va sog'liq havfsizligi sohasidagi siyosati (keyinchalik matnda Siyosat), yetakzib berilayotgan mahsulotning sifati iste'molchilarni qoniqtirish darajasini doimiy ravishda oshirishga, atrof-muhitni muhofaza qilish va xodimlarning havfsizligini ta'minlashga, hamda energiya zahiralari oqilona foydalanishga yo'naltirilgan. Belgilangan maqsadlarga ishlab chiqarishda ilg'or texnologiyalarni tadbiiq etish, mukammal infratuzilma va malakali mutaxassislarni jalb etgan holda zamonaviy boshqaruv usulalaridan foydalanish orqali erishiladi.

MChJ shaklidagi «KNAUF GIPS BUXARA» Xorijiy korxonasi gips mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha dunyodagi eng yirik xolding kompaniyalaridan biri va O'zbekistonda quruq gips aralashmalari ishlab chiqaruvchi yirik korxonalaridan biri bo'lib, ichki va tashqi bozordagi ehtiyojni qondirish o'z oldiga qo'ygan maqsadi bo'lib, sifat va narxning nisbati iloji boricha ko'proq iste'molchilarni qoniqtirishga harakat qiladi.

Bizning shiorimiz: xodimlarning salomatligiga va atrof-muhitga zarar yetkazmasdan, haqlarini buzmasdan, hamda energiya zahiralari oqilona foydalangan holda sifatlil mahsulotlarni ishlab chiqarish orqali Korxonaning farovonligiga va ravnaq topishiga erishish.

BIZNING MAQSADLARIMIZ

Belgilangan siyosatga amal qilgan holda quyidagi strategik maqsadlarga erishish zaruriyati Korxon Boshqaruvi tomonidan ma'quul deb topildi:

Sifat sohasida:

- ichki va tashqi bozorlarda Korxonaning raqobatbardoshligini o'rttirish;
- mahsulot sifatini yaxshilash, xom ashyo va energiya zahiralari oqilona foydalanish, hamda mehnat unumdorligini ko'tarish maqsadida ilg'or texnologik uskunalar tadbiiq etish;
- mahsulotning laboratoriya tekshiruvini amalga oshirishning shart-sharoitlarini takomillashtirish;
- bozordagi sotish ko'lamini kengaytirish va ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmini o'rttirish;
- xodimlarning malakasini muntazam ravishda ko'tarish va ularning samarali mehnat qilishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish;
- infratuzilmani rivojlantirish;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulotga putur yetkazmagan holda bosqichma-bosqich tarzda mahsulot tannarxini pasaytirish.

Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida:

- korxonaning faoliyatidan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ekologik risklarni doimiy ravishda kamaytirish;
- ekologik monitoring mexanizmidan foydalangan holda, hamda muhim ekologik jihatlarni boshqargan holda atrof-muhitning barcha turdagi ifloslanishini aniqlash va nazorat qilish;
- tabiiy zahiralardan oqilona va ehtiyatkorona foydalanish;
- ishlab chiqarishni samarali boshqarish va ekologik muhitni muntazam ravishda tahlil qilish orqali atrof-muhitni ifloslanishining oldini olish;
- tabiatni qo'riqlash to'g'risidagi qonunchilikni ijro etish, inson hayotini va salomatligini saqlab qolish, mintaqaviy ekologik dasturlarni ijro etish bo'yicha majburiyatlarni bajarish; > xodimlarning ekologik angli va ekologik madaniyati saaviyasini oshirish.

Sog'liqni muhofaza qilish va mehnat havfsizligini ta'minlash sohasida:

- xodimlarning hayoti va sog'lig'iga ta'sir qiluvchi risklarni doimiy ravishda bartaraf etish;
- korxon xodimlarining, aholi, ta'sirlangan jamoalar va boshqa manfaatdor shaxslarning havfsizligini ta'minlash maqsadida faoliyatidagi barcha havflarni va risklarni aniqlash;
- havfsiz asbob-uskunalarini, hamda havfsiz mehnat usullarini o'z ichiga Olgan havfsiz mehnat sharoitlari bilan ta'minlash;
- xodimlarga kerakli miqdorda tegishli ma'lumotlarni yetkazish, ularga instruktaj berish va tayyorlash, hamda ishlab chiqarish operatsiyalarini havfsiz shaklda amalga oshirish qobiliyatiga ega ekanliklariga amin bo'lish uchun ularning faoliyatini nazorat qilish;
- risklarni bartaraf etish imkonli mavjud bo'lmagan holda ularni maxsus kiyim va uskunalar bilan ta'minlash;
- favqulotda vaziyatlarda birinchi yordam ko'rsatish va tegishli amaliyotlarni amalga oshirish uchun texnika vositalarining mavjudligini ta'minlash;
- adekvat sharoitlar bilan ta'minlash va xodimlarga havfsizlik masalalari bo'yicha ma'lumot berish maqsadida tegishli tadbirlarni o'tkazish;
- potentsial sabablarni aniqlash va o'rganish, ularning takroran sodir bo'lishiga imkon bermaslik maqsadida havfli hodisalarni va vaziyatlarni taftish etish.

Energiya zahiralariidan foydalanish sohasida:

- energiya zahiralariidan oqilona va tejankorlik bilan foydalanish;
- iste'mol qilinayotgan energiya zahiralari hajmini optimallashtirish yoki ularning o'rni muqobil energiya manbalari bilan o'zgartirish borasidagi tadbirlarni doimiy ravishda ishlab chiqish va tadbiiq etish;
- mahsulot sifatiga, xodimlarning va atrof-muhitning havfsizligiga putur yetkazmagan holda energiya zahiralariining minimal iste'molini ta'minlovchi ilg'or asbob-uskunalaridan foydalanish.

Inson zahiralariini boshqarish sohasida:

- barcha bosqichlarda ish faoliyatining samaradorligini o'rttirish;
- ishga malakali mutaxassislarni jalb etish;
- kadrlar zahirasini rejalashtirish, o'qitish va rivojlantirish;
- xodimlarni motivatsiya qilish va ishga qiziqtirish;
- qulay mehnat sharoiti bilan ta'minlash;
- korxonada korporativ muhitni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash;
- xodimlarning ma'naviy ruhiyatini yuqori darajada saqlash, bir oila a'zosi ekanliklarini his qildirish;
- mehnat va fuqarolik-huquqiy qonunchilik talablarini bajarish.

Ijtimoiy barqarorlik sohasida:

- adolatlil munosabat va xodimlar uchun teng imkoniyatlar takdim taqdim etish, ularning huquqlarini hurmat qilish, kamsitishga yo'l qo'ymaslik;
- xodimlarning ijtimoiy himoyasini ta'minlash va majburiy mehnatdan voz kechish;
- madaniy merosni saqlash;
- aholi va jamoalarning huquqlari va qadr-qimmatini, intilishlari va madaniyatini hurmat qilish;
- tadbirkorlar va odamlarning mulklariga hurmatli munosabatlil bo'lish;
- barcha manfaatdor tomonlarning shikoyatlarini, savollari, fikrlariga o'z vaqtida javob berish.

BIZNING MAJBURIYATLARIMIZ

Ekologik meyyorlarga va qoidalarga amal qilgan holda, hamda korxonamiz xodimlarining va faoliyatimiz ta'sir qiladigan boshqa shaxslarning salomatligini, havfsizligini va farovonligini saqlash orqali iste'molchining bizga, gips mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonamiz sifatida bo'lgan ishonchini oqlash va saqlash majburiyatini o'z zimmasimizga olamiz. Biz mehnat sharoitining havfsizligini oshirishga, meyyoriy hujjatlarda ko'rsatilgan majburiyatlarni ijro qilishga, hamda Korxonamiz o'z istagi bilan bajarishga ahd qilgan boshqa talablarga rioya qilishni ta'minlashga doimiy ravishda intilamiz.

Korxonamiz belgilangan maqsadlarga erishish va qo'yilgan vazifalarni bajarish maqsadida quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasimizga olamiz:

- Korxonamiz ishlab chiqarish va ho'jalik faoliyatining boshqa natijalariga nisbatan xodimlarning hayotini va salomatligini saqlash ustuvorligini o'rnatish va shunga amal qilish;
- sifat, energiya zahiralariini boshqarish, atrof-muhitni muhofaza qilish, kasbiy va sog'liq havfsizligini ta'minlashning integratsiyalashgan tizimining unumdorligini doimiy ravishda o'rttirish
- Korxonamiz faoliyatida O'zbekiston Respublikasining inson va energiya zahiralariini boshqarish, atrof-muhitni muhofaza qilish, kasbiy va sog'liq havfsizligini ta'minlash sohasidagi qonunchiliklarga rioya qilinishini, shu bilan birga ISO 9001, ISO 14001, ISO 45001, ISO 50001 va IFC Xalqaro Moliya korporatsiyasining faoliyat standartlari
- korxonamiz xodimlarining va faoliyatimiz ta'sir qiladigan boshqa shaxslar salomatligining og'irlashishini va jarohatlanishining oldini olish;
- atrof-muhitga doimiy ravishda ijobiy ta'sir ko'rsatish va ifloslanishining oldini olish;
- sifat, energiya zahiralariidan foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish, kasbiy va sog'liq havfsizligini ta'minlash sohasida maqsadlarni va vazifalarni belgilash va ularni amalga oshirish;
- maqsadlarga erishish va qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun kerakli bo'lgan barcha ma'lumotlar va zahiralilar bilan ta'minlash;
- sifat, energiya zahiralariini boshqarish, atrof-muhitni muhofaza qilish, kasbiy va sog'liq havfsizligini ta'minlash borasida xodimlarning faol ishtirokini yo'lga qo'yish, amalga oshirilayotgan tadbirlarning ochiqqilligini ta'minlash;
- energetik unumdorlikni doimiy ravishda yaxshilash;
- Korxonamiz xodimlariga va barcha manfaatdor shaxslarga ushbu Siyosat talablarini yetkazish va ijro etilishini nazorat qilish.

Korxonamiz Bosh Direktori ushbu Siyosat talablarining tadbiiq etilishiga, uning aktualligini vaqtida tahlil qilishga va kerakli holatlarda o'zgartirishlar kiritishga mas'uldir. Bosh Direktor ushbu Siyosatning aktualligini bir yilda kamida bir marotaba tahlil qilishi zarur.

MAS'ULIYAT VA TAHLIL

Korxonamiz Siyosati quyidagi majburiyatlarni korxonamiz zimmasimizga yuklaydi:**barcha sexlar va tuzilmaviy bo'linmalar rahbarlari:**

- o'z faoliyatini davomida ushbu Siyosat talablariga amal qilish, bo'linmaning barcha xodimlari tomonidan ushbu siyosatning anglanishini va amaliyotga tadbiiq etilishini ta'minlash;
- ish faoliyatining sifatlil bajarilishi uchun hamda mehnat samaradorligini ko'tarish maqsadida barcha kerakli sharoitlarni yaratib berish;
- doimiy ravishda bo'linma xodimlarining malakasini oshirish hamda ularga qo'yilgan malakaviy talablarga asoslangan holda ularni kasbiy o'sishini ta'minlash maqsadida barcha kerakli sharoitlarni yaratib berish;
- inson huquqlarining buzilishiga, sifatsiz mahsulotning ishlab chiqarilishiga, energiya zahiralariining isrof qilinishiga, atrof-muhitga salbiy ta'sir etuvchi omillarning vujudga kelishiga, xodimlarning har qanday turdagi jarohatlanishiga yoki sog'lig'ining og'irlashishiga Olib kelish ehtimoli bo'lgan barcha hodisalarning oldini Olish;

korxonamiz har bir xodimi:

- ushbu Siyosatning mahiyatini anglab yetish va o'z ish faoliyatida amaliyotga tadbiiq etish;
- meyyoriy hujjatlarda ko'rsatilgan, iste'molchilar, korxonamiz tomonidan qo'yilgan talablarni, hamda
- ISO 9001:2015, ISO 14001:2015, ISO-45001-2018, ISO 50001:2011, IFC Xalqaro Moliya korporatsiyasining faoliyat standartlari;
- ijodiy tashabbusni namoyan qilish, taraqqiy etishga doir takliflarni bildirish, hamda ish faoliyatini sifatlil tarzda Olib borilishiga ta'sinlik qiladigan barcha sabablarni va vaziyatlarni bartaraf etishga erishish;
- natijalarga erishishga intilish, tez ta'lim Olish qobiliyatiga ega bo'lish va olingan bilimlardan foydalanish;
- Korxonamizning har bir xodimi ushbu Siyosatning amalga oshirilishiga mas'ul hisoblanadi. Biz bu siyosatni bir yilda kamida bir marotaba tahlil qilib chiqamiz, hamda faoliyatimizda yoki tegishli qonunchilikda biran-bir o'zgarish sodir bo'lgan holda ham tahlil amalga oshiriladi.

Yuqori boshqaruv belgilangan maqsadlarga erishish uchun barcha zahiralilar bilan ta'minlashni o'z zimmasimizga oladi, xodim esa ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatiga bo'lgan shaxsiy mas'uliyatini o'z bo'yiniga oladi, shuningdek, baxtsiz hodisalarning, jarohatlarning va kasbiy hastaliklarning oldini Olish, energiya zahiralariidan oqilona foydalanish, ish faoliyatini natijasida atrof-muhitga bo'lgan salbiy ta'sirini kamaytirish uchun ham javobgardir.

Bosh director



D.A. Deripalko